

NIZOLARNING XALQARO TIJORAT ARBITRAJIGA TAALLUQLILIGI MASALALARI

Mirzanazarov Jonibek Avazbek o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti magistratura bosqichi talabasi

Ilmiy rahbar Shodiyeva Sayyora Arifovna

Yuridik fanlari nomzodi, dotsent, "Fuqarolik va xalqaro xususiy huquq fanlari" kafedrasida dotsenti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20633813>

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida xalqaro tijorat arbitrajiga taalluqlilik masalalarini aniqlashtirish va amaldagi qonunchilikdagi noaniqliklarni bartaraf etishga qaratilgan. Hozirgi tartibga ko'ra tijorat munosabatlaridan kelib chiqadigan aksariyat nizolar arbitrajda ko'rilishi mumkin bo'lsa-da, korporativ, investitsion va ko'chmas mulk bilan bog'liq ba'zi nizolarda amaliyotda turli talqinlar uchramoqda. Loyiha ushbu toifalarning arbitrajga mos fuqarolik-huquqiy tabiati asosida ularning arbitrajga taalluqliligini aniq belgilash zarurligini asoslaydi. Investitsion nizolar bo'yicha majburiy mediatsiya bosqichini ixtiyoriy qilish arbitrajga tezkor murojaat qilish imkonini kengaytirishi ta'kidlanadi. Ko'chmas mulk bilan bog'liq nizolarda esa davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibining arbitraj qarorlari ijrosiga sun'iy to'siqlar yaratmasligi uchun aniq mexanizmlar belgilanishi taklif etiladi.

Takliflar "favor arbitri" prinsipi va UNCITRAL Model Qonuniga mos ravishda ishlab chiqilib, arbitrajning qo'llanishini kengaytirish hamda huquqiy aniqlikni oshirishni nazarda tutadi.

Keywords: Arbitrajga taalluqlilik, xalqaro tijorat arbitraji, korporativ nizolar, investitsiyaviy nizolar, UNCITRAL Model Qonuni.

KIRISH

Xalqaro tijorat arbitraji institutining samaradorligi ko'p jihatdan u orqali ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan nizolarning aniqligi va chegaralariga bog'liq. O'zbekiston qonunchiligida "arbitrajga taalluqlilik" tushunchasi mustaqil termin sifatida qo'llanmasa-da, arbitrajga doir masalalar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda aniq belgilangan.

O'zbekistonning "Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasiga binoan, "Xalqaro tijorat arbitrajiga taraflarning kelishuviga binoan tijorat xususiyatiga ega bo'lgan ham shartnomaviy, ham shartnomadan tashqari barcha munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar berilishi mumkin", deb e'tirof etilgan.

Bu yondashuv "Xalqaro tijorat arbitrajida UNCITRAL Model Qonuni"dagi keng qamrovli yondashuv bilan mos keladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, kundan-kun O'zbekiston UNCITRAL Model Qonuni standartlariga yaqinlashmoqda, biroq davlat siyosatiga oid ba'zi masalalar arbitrajga taalluqsiz bo'lib qolmoqda. Ya'ni amaliyotda ba'zi kategoriyalar bo'yicha noaniqlik kuzatilmoqda.

Ayniqsa, korporativ nizolar, investitsion nizolar, ko'chmas mulk bilan bog'liq nizolar, jismoniy shaxs ishtirokidagi nizolar va shularga o'xshash masalalarda arbitrajga taalluqlilik muammoli ko'rinishga ega.

Ushbu hisobot aynan maqolada ko'tarilgan masalalar asosida ushbu toifalardagi nizolarning arbitrajga taalluqliligini aniqlashtirish, amaliyotdagi ziddiyatlarni bartaraf etish va qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA NAZARIY QOIDALAR

Xalqaro tijorat arbitrajiga oid adabiyotlar ko'plab ilmiy va amaliy ishlarni o'z ichiga oladi. Masalan, Born Xalqaro tijorat arbitrajiga oid ilmiy izlanishlarida arbitrajning umumiy prinsiplari, arbitrajga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan nizolar va cheklovlar haqida keng izoh bergan¹.

Aytish joizki, arbitrajga taalluqlilikni mavhum holda ham aniqlash oson emas. Avvalo arbitrajga taalluqlilikni tartibga soluvchi huquqni belgilash zarur. Qaysi huquq qo'llanilishiga qarab, nizo arbitrajda ko'rib chiqilishi mumkin yoki mumkin emasligi o'zgarishi mumkin².

Bundan tashqari, arbitrajga taalluqlilik masalasining hal qilinishi arbitraj jarayonining turli bosqichlarida va turli organlarda sodir bo'lishi mumkin. Bunga jarayon boshida arbitraj tribunalida ko'riladigan masalalarni; davlat sudlaridagi jarayonlar - arbitrajni davom ettirishdan oldin hal qilinishi lozim bo'lgan dastlabki masala sifatida yoki arbitraj qarorini bekor qilish masalasi sifatidagi holatlarni; hamda arbitraj qarorini ijro etish sudi oldidagi jarayonlarni kiritishimiz mumkin. Natijada arbitrajga taalluqlilikni belgilashda qo'llanishi mumkin bo'lgan bir nechta huquq variantlari mavjud.

Ushbu vaziyatlar bo'yicha Gary Born quyidagilarni sanab o'tadi:

- arbitraj qarorini ijro etish amalga oshirilayotgan yoki kelajakda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan davlat huquqi;
- tomonlarning arbitraj kelishuvi uchun qo'llaniladigan huquq;
- arbitraj o'tkaziladigan joy huquqi;
- arbitraj kelishuvini majburiy ijro ettirish so'ralayotgan sud organi huquqi;
- arbitrajga taalluqli emas deb hisoblanayotgan moddiy-huquqiy talabning asosini tashkil etuvchi huquq; yoki
- Nyu-York Konvensiyasi (yoki boshqa tegishli konvensiyalar) dan kelib chiqadigan arbitrajga taalluqlilikning yagona xalqaro ta'rifi³.

Qisqacha qilib aytganda hozirgi adabiyotlarda arbitrajga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan va bo'lmagan nizolarni aniq tasniflash hamda ularning xalqaro tijorat amaliyotiga ta'siri mavzusida tadqiqotlar oshirilgan va ba'zi bo'shliqlarni to'ldirish maqsadida yanada chuqurroq izlanishlar qilinmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

1. Korporativ nizolarning arbitrajga taalluqliligi

O'zbekiston qonunchiligiga asosan, korporativ nizolar milliy iqtisodiy sudlarning yurisdiksiyasiga kiritilgan bo'lsa-da, bu ularni arbitrajda ko'rib bo'lmaydi, degan xulosa uchun asos bo'la olmaydi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 25-moddasi⁴ faqat yurisdiksiyani, ya'ni ishlarning milliy sudga taalluqliligini belgilaydi, ammo mazkur nizolarni arbitrajdan chiqarib tashlovchi norma mavjud emas.

Korporativ nizolar tarkibi juda keng: ulushlar, dividendlar, ishtirokchilar yig'ilishi, boshqaruv organlari qarorlarining haqiqiyliigi, aksiyalar emissiyasi va hokazo. Bular iqtisodiy faoliyatga bevosita bo'g'liq va bunday nizolar fuqarolik-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadi, shuning uchun arbitraj uchun tabiiy ravishda mos hisoblanadi.

¹ Born, G.B. (2014). International commercial arbitration (Second Edition). Kluwer Law International.

² O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni,

³ Thomas E Carbonneau & Francois Janson, Cartesian Logic and Frontier Politics: French and American Concepts of Arbitrability, 2 Tul J Intl & Comp L 193, 194, 210 (1994)

⁴ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 01.04.2018-yil, <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3533060>

Bundan tashqari, ba'zi yirik korxonalar shartnomalarida arbitraj bandi qo'llanilayotganini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu amaliyot arbitrajning korporativ sohada ham qo'llanishi mumkinligini amalda tasdiqlaydi.

Yuqorida keltirilgan "favor arbitri", ya'ni nizolarning arbitrajda ko'rilishiga ustuvorlik berish prinsipi⁵ esa mazkur munosabatlarning arbitrabeligini keng talqin qilish zarurligini yanada mustahkamlaydi. Xususan, mazkur prinsip xalqaro arbitraj amaliyotida nizolarni arbitrajda ko'rib chiqishga yo'l ochuvchi yondashuvni talab qiladi.

Takomillashtirish uchun takliflar:

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining korporativ nizolar haqidagi moddasiga arbitrajga taalluqlilikni rad etmasligi haqida izoh kiritish.

- Korporativ nizolarning arbitrajga taalluqliligini bevosita mustahkamlovchi normalarni qonun darajasida belgilash.

2. Investitsion nizolar va mediatsiya talabi

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida" qonunining 63-moddasi investitsion nizolarni arbitrajda ko'rib chiqishga ruxsat beradi⁶. Biroq ushbu moddada nizolarni birinchi navbatda mediatsiya orqali hal qilish talabi mavjud bo'lib, bu arbitrajga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyatidan mahrum etadi.

Investitsion nizolar natura jihatdan arbitrajga eng mos kelishiga qaramasdan, amaldagi qonunchilik ularga nisbatan majburiy mediatsiya talabini qo'yayotgani alohida muammo sifatida ko'rsatib o'tishimiz lozim. Investitsiyaning o'zi transmilliy elementlarga ega bo'lgani sababli, arbitraj eng maqbul mexanizm hisoblanadi. Shu bilan birga, mediatsiya bosqichining majburiyligi arbitraj kelishuvining tabiiy mohiyatiga zid.

Takomillashtirish uchun taklif:

- Investitsion nizolar bo'yicha mediatsiya talabini ixtiyoriy shaklga o'tkazish.

3. Ko'chmas mulk bilan bog'liq nizolar

Bu turdagi nizolar alohida e'tiborga loyiq, chunki ko'chmas mulk bilan bog'liq huquqiy tartib va mulkni davlat ro'yxatidan o'tkazish talablariga bog'liq holda, bu nizolarni xalqaro savdo arbitrajiga yuborish mumkinligi yoki mumkin emasligi masalasida chalkashliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ko'chmas mulkka oid shartnomalar ham shartnomaviy majburiyatlar hisoblanadi. Asosiy qoidaga ko'ra, agar bunday munosabatlar ma'muriy-huquqiy munosabatga kirmasa, tomonlar teng bo'lib, fuqarolik shartnomasi va arbitraj kelishuvi tuzish imkoniyatiga ega bo'lsa, unda ular arbitrajga yuborilishi mumkin, ya'ni arbitrajga taalluqli hisoblanadi. Biroq O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 240-moddasida belgilanishicha, chet ellik shaxslar ishtirokidagi nizolar O'zbekiston Respublikasining davlat mulki bo'lgan mol-mulkka nisbatan nizolar bo'yicha, shu jumladan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va davlat mulkini xususiylashtirish hamda jamoat ehtiyojlari uchun mulkni olib qo'yish bilan bog'liq nizolar bo'yicha ishlar hamda predmeti ko'chmas mol-mulk bo'lgan nizolar bo'yicha, agar bunday mol-mulk O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bo'lsa, yoki bunday mol-mulkka bo'lgan huquqlar to'g'risidagi nizolar bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarining mutlaq vakolatlariga kiradi⁷.

⁵ William W. Park, The Arbitrator's Jurisdiction to Determine Jurisdiction, in INTERNATIONAL ARBITRATION 2006: BACK TO BASICS 55, 90 (Albert Jan van den Berg ed., 2007); see infra Parts III and V.

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-4664142#-4664456>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 01.04.2018-yil, <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3533060>

Bu norma orqali, agar nizoning predmeti ko'chmas mulk bo'lsa va bu mulk O'zbekiston hududida joylashgan bo'lsa, xorijiy shaxslar ishtirokidagi nizolarni faqat iqtisodiy sudlar ko'rib chiqishini ko'rishimiz mumkin.

Biroq Yuqoridagi iqtisodiy protsessual normalar faqat davlat sudlarining vakolatini belgilaydi va xalqaro tijorat arbitrajining vakolatiga taalluqli emas. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy protsessual kodeksida xorijiy sudlar va arbitraj tushunchalari alohida ko'rib chiqilgan. Bunga asosan, aytishimiz mumkin-ki, IPKning 240-moddasida ko'rsatilgan qoidalar faqat milliy sudlarga tegishli, davlatga tegishli bo'lmagan xalqaro arbitraj sudlariga taalluqli emas.

Bundan tashqari, ko'chmas mulk huquqlarini va ularga oid shartnomalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish majburiyati xalqaro savdo arbitrajida nizoni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi. Chunki, arbitraj qarori asosida mulkni egallik huquqi faqat sud yoki davlat ijrochisi qarori bilan rasmiylashtiriladi. Shu bois, arbitraj qarorini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ijro varaqasi olish majburiy hisoblanadi⁸.

Xulosa qilib aytganda, qonunchilikni yanada takomillashtirish maqsadida, arbitraj ishtirokchilarining roziligi bilan ko'chmas mulk huquqlarini ro'yxatga olish imkoniyatini qonunda ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu arbitraj qarorlarini ixtiyoriy ijro etish imkoniyatini beradi va nizolarni tezroq hal qilishga yordam beradi.

Takomillashtirish uchun taklif:

- Ko'chmas mulk huquqlarini ro'yxatga olish tartibini arbitraj qarorlariga moslashtirish:

Arbitraj qarorini ijro qilish uchun davlat ro'yxatidan o'tkazish imkoniyati qonunda aniq ko'rsatilishi kerak. Masalan, tomonlar roziligi bilan arbitraj qarorini asos qilib ko'chmas mulkni ro'yxatga olish mexanizmini yaratish;

- Nizolarni turiga qarab ajratish: Ko'chmas mulk bilan bog'liq ma'muriy-huquqiy nizolarni arbitrajga yuborilmasligi, shartnomaviy va fuqarolik munosabatlari esa arbitrajga yuborilishi mumkinligini qonunda aniq belgilash;

- O'zaro tomonlarning roziligi asosida arbitrajda ko'rilgan arbitraj qarori yuzasidan ko'chmas mulk huquqi bo'yicha milliy sudda qayta ko'rib chiqishlarsiz to'g'ridan-to'g'ri ro'yxatdan o'tkazishni qonunchilikda belgilash.

XULOSA

Bugungi kunga kelib, O'zbekistonning arbitraj sohasidagi qonunchiligi jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Biroq muqobil nizolarni hal qilish usullarini, jumladan xalqaro tijorat arbitrajini qo'llash uchun zamin o'nlab yillar davomida tayyorlab kelindi.

O'zbekiston Respublikasi va o'zbek kompaniyalari bir necha bor arbitraj maydoniga chiqishga muvaffaq bo'lgan, bugungi kunda biz uchratayotgan ba'zi nizolar esa ushbu sohada qonunchilikni yanada liberallashtirish zarurligini ko'rsatmoqda⁹.

Shuning uchun O'zbekistonda ayniqsa korporativ, investitsion va ko'chmas mulk bilan bog'liq nizolarda talqinlar turlicha bo'lgani arbitraj amaliyotida noaniqliklarni yuzaga keltirayotgani sababli xalqaro tijorat arbitrajining samarali ishlashi nizolarning qaysi toifalari arbitrajga taalluqli ekanini aniq belgilab olish qonunchiligimiz yanada shaffof holatga kelishiga yordam beradi, deb ayta olamiz.

⁸ NATALJA FREIMANE,(2012) ARBITRABILITY: PROBLEMATIC ISSUES OF THE LEGAL TERM 68 pages <https://sccarbitrationinstitute.se/wp-content/uploads/2024/12/arbitrability-problematic-issues.pdf>

⁹ Inoyatova S. Some issues of international commercial arbitration in Uzbekistan/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ 436-443p.

Bundan tashqari, korporativ nizolarning fuqarolik-huquqiy tabiati asosida ularni arbitrajga taalluqli deb normativ ravishda mustahkamlash, investitsion nizolardagi majburiy mediatsiyani ixtiyoriy qilish hamda ko'chmas mulkka oid nizolar bo'yicha aniq tasnif va ijro mexanizmini belgilash zarur.

Ushbu takliflar arbitrajdan foydalanishni kengaytirib, O'zbekistonning xalqaro arbitraj tizimidagi raqobatbardoshligini oshiradi va investorlar uchun barqaror huquqiy muhit yaratadi.

(Asosiy matn – 1388 so'zdan iborat)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Born, G.B. (2014). International commercial arbitration (Second Edition). Kluwer Law International.
2. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son, <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
3. Thomas E Carbonneau & Francois Janson, Cartesian Logic and Frontier Politics: French and American Concepts of Arbitrability, 2 Tul J Intl & Comp L 193, 194, 210 (1994)
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 01.04.2018-yil, <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3533060>
5. William W. Park, The Arbitrator's Jurisdiction to Determine Jurisdiction, in INTERNATIONAL ARBITRATION 2006: BACK TO BASICS 55, 90 (Albert Jan van den Berg ed., 2007); see infra Parts III and V.
6. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son Qonuni, <https://lex.uz/uz/docs/-4664142#-4664456>
7. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi 01.04.2018-yil, <https://lex.uz/ru/docs/-3523891#-3533060>
8. NATALJA FREIMANE, (2012) ARBITRABILITY: PROBLEMATIC ISSUES OF THE LEGAL TERM 68 pages <https://sccarbitrationinstitute.se/wp-content/uploads/2024/12/arbitrability-problematic-issues.pdf>
9. Inoyatova S. Some issues of international commercial arbitration in Uzbekistan/ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences/ 436-443p.
10. UNCITRAL MODEL LAW ON INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION https://uncitral.un.org/sites/uncitral.un.org/files/media-documents/uncitral/en/06-54671_ebook.pdf